

## NAZAR ESHONQUL



Bugun O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yozuvchi, senarist, telejurnalist Nazar Eshonqul tavallud topgan kun.

Nazar Soliyevich Eshonqulov 1962 yil 15 iyunda Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani Tersota kishlog'ida tug'ilgan. ToshDU (hozirgi O'zMU)ning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1986).

Uning "urush odamlari" (1989 y), "maymun yetaklagan odam" (2002 y), "shamolni tutib bo'lmaydi" (2004 y), "qadim qo'shiq" (2006 y), "Yalpiz hidi" (2008 yil), "shaftoli guli" (2012 y), "Momoqo'shiq" (2019 y) kabi badiiy kitoblari, milliy va dunyo adabiyoti hamda san'atining yirik namoyandalari ijodiga, kitobxonlik, mutolaa madaniyatiga bag'ishlangan "men"dan "men"gacha" (2014 y), "ijod falsafasi: "men"dan "men"gacha 2" (2018 yil) nomli esselar kitoblari, uchta hikoyalar to'plami, "Go'ro'g'li" (2018 yil), "ta'qiq mevasi" (2020 y) romanlari chop etilgan.

Asarlari turk, Arab, rus, koreys, tojik, qozoq tillariga tarjima qilingan. O'zbek Milliy teatrida "Jaloliddin Manguberdi", "urush odamlari" nomli pesalari sahnalashtirilgan.

Nazar Eshonqul televidenie sohasida "Alpomish izidan", "asrga tatigulik o'n yil" turkum videofilmlarini yaratdi. "Bitik", "dunyo adabiyoti", "yozuvchi va zamon" ko'rsatuvlariga mualliflik qildi, tomoshabinlar o'rtasida katta qiziqish bilan ko'rilgan "ozod yurt odamlari", "qiyofa", "rangin dunyo", "Tarix ko'zgusi", "ostonasi tillodan" kabi o'nlab ko'rsatuvlarni tashkil etdi. "Ming bir hadis" turkumi asosida o'ndan ortiq videofilmlar yaratilishiga bosh-qosh bo'ldi. Uning tashabbusi bilan "gap chiqdi", "oq va qora", "shaxsiy fikr", "Oltin beshik" kabi tilga tushgan tok-shoular, "talvasa", "o'ch" kabi ko'p qismli videofilmlar, badiiy ko'rsatuvlar yaratildi.

Nazar Eshonqul 1998-2002 yillari YUNESKO xalqaro tashkiloti bilan hamkorlikda yaratilgan 740 qismli "har dardning davosi bor!" radioseriali muallifidir.

Nazar Eshonqul "Madaniyat va ma'rifat" telekanalida "dunyo adabiyoti", "naql", "Tamaddun izlaridan", "adabiy o'qish", "Milliy mulk", "Konservatoriya oqshomlari", "mezon", "qiyofa", "bashariyat siymolari", "Milliy ta'lim", "oqshom gurunglari", "Oltin do'mbira", "tasviriy san'at ustalari", "Jahon opera va baleti", "o'zingni namoyon qil", "kitobxon-shou", "mutolaa" kabi loyihalarning muallifi va tashkilotchisi. Ayni paytda ushbu telekanalda efirga uzatilib kelinayotgan "dunyoni zabt etgan kitoblar", "mangu lahza" ko'rsatuvlari muallifi.

Nazar Eshonqul 2016 yildan buyon "O'zbektelefilm" DUKda direktor o'rinbosari – bosh muharrir bo'lib ishlab kelmoqda. U yangi davrga mos, zamonaviy, jahon standartlaridagi milliy seriallar ishlab chiqarishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Nazar Eshonqul taniqli stsenarist ham. "Notanish polvon", "Lola" (serial varianti ham mavjud), Mo'ynoqdagi bugungi bunyodkorliklarga bag'ishlangan "Aydinlar" badiiy filmlari, "poydevor", "Sevgi farishtasi", "qish ertagi", 54 qismdan iborat, tomoshabinlarda juda katta taassurot qoldirgan "tutash taqdirilar" (Z.Begimqulova bilan hammualliflikda), 140 qismdan iborat "opa-singillar" (hammuallif Z. Begimqulova), 30 qismli "yosh oila", 30 qismli "chegaradagi qishloq" seriallarining muallifi, Abdulla Qodiriy pesasi asosida sahnalashtirilgan "baxtsiz kuyov" filmining badiiy rahbari.

Nazar Eshonqulning stsenariysi asosida "Sumbula", "Shiroq", "Jaloliddin Manguberdi", "Padarkush" badiiy filmlari, 45 qismli "muhabbat liboslari-2", 45 qismli "chegaradagi qishloq-2" teleseriali suratga olinmoqda.

2018 yilda "Xalq so'zi" gazetasida chop etilgan "Samarqand gavhari", "Chingiz Aytmatov saboqlari", "shahrimiz qiyofasida o'zligimiz namoyon bo'lsin!", "Millatning qon tomiri, obi-hayoti" nomli maqolalari uchun gazetaning yillik mukofoti g'olibi bo'lgan.

Nazar Eshonqul 1999 yili "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi jamoasi va a'zolari nazar Eshonqulni tavallud kuni bilan muborakbod etadi.